

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT MUZEYI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.08/09.07.2020.San.118.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI**

TURGUNOVA FAZILAT NORMURODOVNA

**SIRDARYO VILOYATI MADANIY MEROS OBYEKTLARINI
SAQLASH VA MUZEYLASHTIRISH MASALALARI**

**17.00.06 – Muzeyshunoslik. Tarixiy madaniy obyektlarni konservatsiya qilish,
ta‘mirlash va saqlash**

**SAN‘ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

UDK:069.8:008(575.112)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Turgunova Fazilat Normurodovna

Sirdaryo viloyati madaniy meros obyektlarini saqlash va muzeylashtirish masalalari..... 3

Тургунова Фазилат Нормуродовна

Задачи сохранения и музеефикации объектов культурного наследия Сырдарьинской области.....26

Turgunova Fazilat Normurodovna

Issues of Preservation and Museification of Cultural Heritage Objects in the Syrdarya Region.....51

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works55

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT MUZEYI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.08/09.07.2020.San.118.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA
DIZAYN INSTITUTI**

TURGUNOVA FAZILAT NORMURODOVNA

**SIRDARYO VILOYATI MADANIY MEROS OBYEKTLARINI
SAQLASH VA MUZEYLASHTIRISH MASALALARI**

**17.00.06 - Muzeyshunoslik. Tarixiy-madaniy obyektlarni konservatsiya
qilish, ta‘mirlash va saqlash**

**SAN‘ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/San82 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://www.stateartmuseum.uz>) hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portali www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nishanova Kamola Solijon qizi
san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Abdullayev Masharib Saydamatovich
san’atshunoslik fanlari doktori (DSc),
katta ilmiy xodim

Temirxodjayev Djaxangir Pulatovich
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat
instituti**

O‘zbekiston davlat san’at muzeyi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/09.07.2020.San.118.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2025-yil “___” _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100060, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi Shahidlar xotirasi maydoni. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi majlislar zali. Tel.: (99855) 515-37-15; faks: (99855) 515-37-15; e-mail: tmi2007@mail.ru)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat san’at muzeyining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100060, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 16 uy.). Tel.: (99871) 236-74-36; faks: (99871) 236-77-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “___” _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi.)

B.V.Hasanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

M.B.Alijonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.f.d.
(PhD)

A.A.Madramimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, t.f.d. professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi. XXI asrda globallashuv, urbanizatsiya, tabiiy ofatlar, qurolli mojarolar va vandalizm madaniy meros obyektlariga katta tahdid solmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda restavratsiya ishlari uchun mablag‘ yetarli darajada ajratilmasligi, homiylik va xususiy sektor ishtirokining kamligi, zamonaviy restavratsiya texnologiyalari va uskunalarning yetishmasligi, malakali kadrlar tanqisligi bu sohada ko‘plab muammolarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun madaniy meros obyektlarini raqamli muhitda qayta tiklash va hujjatlashtirish, boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, ilmiy tadqiqot jarayonlari bilan integratsiyalash zaruriyati tobora dolzarblashmoqda.

Bugungi kunda Jahon miqyosida madaniy merosni saqlash va restavratsiya qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar UNESCO faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, tashkilotning tashabbusi tufayli minglab yodgorliklar yo‘q bo‘lib ketishdan saqlanib qolindi hamda “Dive into Heritage” va “Unite4Heritage” kabi raqamli dasturlarni amalga oshirmoqda. Bu loyihalar orqali tarixiy obyektlar 3D formatda hujjatlashtirilib, virtual muzeylar orqali insoniyatning umumiy mas’uliyatini oshirish maqsadida jamoatchilikka taqdim etilmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda madaniy meros obyektlarini saqlash va muzeylashtirish borasida keng islohotlar olib borilmoqda. “O‘zbekiston madaniy merosi – Yangi Renessans asosi” nomi ostida madaniy meros haftaligining o‘tkazilishi, Madaniy meros obyektlarini saqlash va restavratsiya bo‘yicha xalqaro markaz (ICCROM), YUNESKO bilan hamkorlikda madaniy merosni saqlash va tiklash borasida loyihalarning yo‘lga qo‘yilishi ushbu jarayonlarning xalqaro mezonlarga asoslanganini ko‘rsatadi. “Zotan, bizda jami 8,2 ming madaniy meros obyektlari mavjud bo‘lib, ulardan 209 tasi YUNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan”¹. Bu jihat, O‘zbekistonning jahon miqyosidagi madaniy qadriyatlar markazi sifatidagi mavqeini belgilagan holda madaniy merosni saqlash va muzeylashtirish jarayonlarni tadqiq etishning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 12-sentabrda qabul qilingan “Muzeylar to‘g‘risida”gi O‘RQ-177-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-avgustdagi F-5024-son “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoyishi, 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son “Madaniyat va san‘at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta‘sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018-yil 26-avgustdagi PQ-3920-son “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san‘at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 27-may PQ-261-son “Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda 975-son “2017-2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini

¹ Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. Тошкент, “Ўзбекистон” нашриёти., 2024 -. Б.345.

takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 19-dekabrda 1019-son "2020-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasida muzeylar faoliyatini takomillashtirish dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot obyekti sifatida tanlab olingan Sirdaryo viloyatidagi arxeologik va madaniy meros obyektlar, muzeylarni tashkil etilishi, faoliyati va kolleksiyalarga oid adabiyotlar hamda manbalar tadqiq qilinishi jarayonida dissertatsiya maqsad va vazifasidan kelib chiqib, uchta guruhga bo'lib o'rganildi. *Birinchi guruhdagi* adabiyotlardan B.P.Denike, B.V.Veymarn², V.A.Voronina³, V.A.Nilsen va V.N.Manakova⁴, G.A.Pugachenkova⁵, L.I.Rempel⁶, A.K.Pisarchik⁷ kabi olimlarning O'rta Osiyo me'morchiligi, san'ati va madaniyati borasidagi tadqiqotlari e'tiborga loyiqdir.

Ikkinchi guruhda aynan Sirdaryo hududida olib borilgan arxeologik ekspeditsiyalarga oid V.Bartold⁸, M.Masson⁹, V.Karavayev¹⁰, A.Gritsina¹¹ O.Salimov, V.Sarianidi, R.Sulaymonov, A.Uralov, T.Shirinov¹², B.Eshov, M.Yusupova, T.Qodirova, T.Hidoyatov, T.Mamatmusayev¹³,

² Веймарн Б.В. Искусство Средней Азии. – М. – Л.: Наука, 1940. – 190 с.; Веймарн Б.В. Архитектурно-декоративное искусство Узбекистана. – М.: Государственное издательство архитектуры, 1948. – 57 с.; Веймарн Б.В. Искусство Средней Азии и Казахстана. – М.: Наука, 1968. – 168 с.; Веймарн Б.В. Искусство арабских стран и Ирана УП-ХУП вв. – М.; Искусство, 1974. – 187 с.

³ Воронина В.Л. Народные традиции архитектуры Узбекистана. – М.: Государственное издательство по архитектуре и градостроительству, 1951. – 167 с.; Воронина В.Л. Колонны соборной мечети в Хиве. – М.: Архитектурное наследство, 1958.; Воронина В.Л. Резное дерево. МИА, вып.15. – М. – Л., 1950.

⁴ Нильсен В.А. Манакова В.И. Архитектурный декор памятников Узбекистана. – Л., 1974. – 272 с.

⁵ Пугаченкова Г.А. Бактрия. Из истории античной культуры Узбекистана. – Ташкент, 1973. – 124 с.; Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Бухара. – М., 1948. -70 с.; Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники изобразительного искусство Узбекистана. –Т.: 1958. -170 с.; Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусств Узбекистана с древнейших времен до середины XIXв. –М.:Искусство, 1965. – 417 с.; Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. – М.: Искусство, 1982. – 288 с.

⁶ Ремпель Л.И. Панжара. Архитектурные решётки и их построение. – Ташкент: Государственное издательство художественной литературы УзССР, 1957. – 144 с.; Ремпель Л.И. Архитектурный орнамент Узбекистана. – Ташкент, Государственное издательство художественной литературы УзССР, 1961. – 606 с.; Ремпель Л.И. Резьба и роспись по ганчу и дереву. – Ташкент, 1962. – 131с.; Ремпель Л.И. Искусство Руси и Восток как историко-культурная и художественная проблема. –Ташкент, Издательство литературы и искусства им.Г.Гуляма, 1969. – 85 с.

⁷ Писарчик А.К. Народная архитектура Самарканда. Душанбе 1975. -141 с.

⁸ Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. - Л.: 1927. - 261 с.

⁹ Массон М.Е. Проблема изучения цистерн-сардоба. Вып.8. - Ташкент, 1935. -43 с.

¹⁰ Караваев В.Ф. Голодная степь в ее прошлом и настоящем. Пг., 1914. -284 с.

¹¹ Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. – Тошкент, 1992. -67 с.

¹² Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культуры эпохи бронзы юга Средней Азии: Автореф. дисс. докт. ист. наук. -М.МГУ.1993.

¹³ Маматмусаев Т.Ш. Ўзбекистон тарихий шаҳарларининг шаклланиши ва ривожланиши. Автореф. дисс. Арх. фан. докт. -Т.: 2019. -50 с.

Sh.Nurmuxamedova¹⁴ va boshqalarning tadqiqotlardan hamda Madaniy meros agentligi, Milliy arxiv hujjatlari o‘rganildi. Sirdaryo viloyati tarixi, shaharlar taraqqiyotning u yoki bu jihatlari qaratilgan ko‘plab tadqiqotlar natijalari maqolalar, monografiyalar hamda dissertatsiyalar misolida nashr yuzini ko‘rgan. Ammo Sirdaryo viloyati madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va muzeylashtirishga doir adabiyotlar va ilmiy ishlar o‘rganilmagan.

Madaniy meros agentligi fondida saqlanayotgan hujjatlarda o‘lkamizda faoliyat yuritayotgan muzeylar haqida hamda bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlarga oid hisobot va ma‘lumotlar o‘z ifodasini topgan¹⁵.

Uchinchi guruhda O‘zbekistonda muzey ishi va madaniy meros obyektlarini muzeylashtirishga oid me‘yoriy hujjatlar¹⁶, muzeyshunoslik sohasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar¹⁷, avtoreferat va dissertatsiyalar¹⁸, o‘quv qo‘llanmalar hamda darsliklar¹⁹, davriy matbuot materiallari o‘rganildi. N.Sodiqovanning ilmiy ishlarida O‘zbekistonda dastlabki muzeylarning paydo bo‘lishidagi shart-sharoit va mustabid tuzumda madaniy merosimizning turli yo‘llar bilan olib chiqib ketilishi, XX asrning 70-yillarida muzeylarning ijtimoiy-madaniy faoliyati yoritib bergan²⁰. XX asrning

¹⁴ Нурмухаммедова Ш.З. Закономерности и стилевые особенности архитектуры Узбекистана античного периода. Автореф. дисс. Арх. фан. докт. -Т.: 2019. -53.

¹⁵ Музей прикладного искусства Узбекистана (бывший дом Головцева). Узбекский научно-исследовательский и проектный институт консервации и реставрации памятников культуры (УзНИПИ реставрации). Т5950/И-20. - Ташкент, 1981 г; Рабочий проект реконструкции музея Есенина по улице Толстого в города Ташкенте. Альбом 5. Сводный сметный расчет и описание работ. Архив Глав НПУ. (ныне Агентство культурного наследия). Т7293/С-48. - Ташкент 1990 г; Рабочий проект реконструкции помещений музея М.Ашрафи с пристройкой экспозиционно-музыкального зала в Ташкенте. Альбом 1. (Пояснительная записка). Т7328/С-48. - Ташкент 1989 г; Туркестанская казённая палата и казначейство (ныне музей истории народов Узбекистана) по улице Куйбышева-15 в города Ташкенте. Книга 1. Предварительные работы. – Ташкент. 1987. -45 с.

¹⁶ “Музейлар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. 2008 йил 12 сентябрь // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2008 йил. – № 37-38.; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // <http://strategy.regulation.gov.uz>.

¹⁷; Курязова Д.Т. Ўзбекистон музейлари ва уларнинг мустақиллик давридаги фаолияти (тарих ва ўлкашунослик музейлари мисолида). Тарих фан. ном. дис. ... автореферати. – Тошкент. 2009. – 30 б.; Альмеев Р.Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития (1991–2000 гг.) Автореф. на соиск. уч. ст. докт. ист. наук. – Ташкент, 2012. – 50 с.

¹⁸ Шоисоев И.К. Мирзаҷўл архитектурасининг вужудга келиш ва тараққий этиш жараёнлари. Архитектура бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2021. - 52 б.; Абриев.Р.Б. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда тарихий-меморий обидаларни таъмирлаш ва қайта тиклаш тарихи (Зарафшон воҳаси мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2017. -54 б.; Ahmedov J.Z. Farg‘ona vodiysidagi tarixiy-madaniy yodgorliklarni muzeylashtirish (XIX–XXI asrlar) / monografiya – Toshkent.: “Fan ziyosi” nashriyoti, 2022. -132 b. N.A.Axmedjonov. O‘zbekistonda XX asr o‘rtalari va XXI asr boshlarida madaniy meros obyektlari va muzeylar tarixi (Jizzax viloyati misolida). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent. 2023. -162 b. Jabborova L.T. O‘zbekistonda muzey dizaynining rivojlanish tamoyillari (XX asr ikkinchi yarmi–XXI asr boshlari). San‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. –Toshkent, 2024. -52 b. Axmedxodjayeva U.T. “XX asrning II yarmida O‘zbekiston rangtasvirida janrlarning tarixiy o‘zgarishlar kesimida shakllanishi”. San‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. -Toshkent. 2025. -168 b. Zaynutdinova Z.B. “O‘zbekiston badiiy ko‘rgazmalar direksiyasi fondi tasviriy san‘at kolleksiyasi shakllanishining asosiy bosqichlari”. San‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. -Toshkent. 2025. -166 b.

¹⁹ Исмаилова Ж.Х., Мухамедова М.С. Замонавий жаҳон музейшунослиги. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Munis design group, 2013. – 310 б.; Исмаилова Ж.Х., Нишанова К.С., Мухамедова М.С. Музей ва жамият. Олий таълим муассасалари учун дарслик. – Тошкент: Чинор ЭНК, 2015. – 174 б.; Мухамедова М.С. Музейшунослик соҳасини ривожлантиришда Миллий ва Халқаро ташкилотлар фаолиятининг ўрни (XX–XXI асрлар). – Тошкент, Yosh kuch press matbuoti, 2017. – 297 б.

²⁰ Садиқова Н. Музейное дело в Узбекистане. . – Ташкент: Фан, 1975. – 290 с ; Шу муаллиф. Маданий меросимиз хазиnasi. - Тошкент: Фан, 1981. – 270 б.; Шу муаллиф. Единство научно-исследовательской и

90 - yillarida muzey ishiga oid ilmiy tadqiqotlar biroz susayganini kuzatish mumkin.

Tadqiqotchi R. Almeyev²¹ Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi misolida mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekistonda muzeylar boshqaruvi, hamda I.N. Ilalov²² muzeylarda ilmiy fond ishlarini tashkil etish, elektron vositalarda axborotlarning tizimli bankini yaratish, iste‘molchining muzey xabarlarini va xazinasiga erkin kira olishi kabi masalalarni ishlarida keng yoritganlar. J.X.Ismailova, K.S.Nishanova, M.S.Muxamedova²³ hamda muzey sohasida faoliyat yuritayotgan bir qator mutaxassislar muzey va jamiyat o‘rtasidagi muammolarga doir izlanishlar olib borishgan²⁴. D.T.Kuryazovning ilmiy tadqiqot ishida O‘zbekistonda tarix ixtisosligidagi muzeylarning tashkil etilishi va mustaqillikkacha bo‘lgan rivojlanish davri bosqichma-bosqich o‘rganilgan²⁵. 2017-yildan boshlangan “O‘zbekiston madaniy merosi jahon to‘plamlarida” xalqaro loyiha doirasida chop etilayotgan albomlar kolleksiyalarni maqsadli o‘rganishga yo‘naltirilgani bilan ajralib turadi²⁶. Shuningdek, O‘zbekiston muzeylarining me‘moriy-badiiy rivojlanish jarayonlar O‘zbekiston Milliy arxivi, Madaniy meros agentligi joriy arxiv manbalari²⁷ asosida tahlil etilib, tadqiqot ishi negizida ilmiy muomalaga kiritildi.

Sirdaryo viloyati tarixi, madaniy meros obyektlari va muzeylari faoliyatiga

идейно-воспитательной работы музеев Узбекистана. Ташкент: Фан, 1987.; Шу муаллиф. Историография и источники по музейному строительству. Ташкент: Фан, 1987.; Шу муаллиф. Мулки торож ўзбегим. Тошкент: Фан-хазина, 1995. – 42 б.; Шу муаллиф. Ўрта Осиёда музейларнинг шаклланиши // Мозийдан садо. Тошкент, 1999. – № 1–2. – Б. 16–23.

²¹ Алмеев Р. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития. Т., 2007. –С. 230.

²² Илалов И.Н. Музееведение. Учеб.пособие для вузов. МВ и ССО РУз. – Т., 2006. -357 с.

²³ Исмаилова Ж.Х., Мухамедова М.С. Замонавий жаҳон музейшунослиги. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Munis design group, 2013. – 312 б.; Исмаилова Ж.Х., Нишанова К.С., Мухамедова М.С. Музей ва жамият. Олий таълим муассасалари учун дарслик. – Тошкент: Чинор ЭНК. 2015. – 174 б; Мухамедова М.С. Музейшунослик соҳасини ривожлантиришда Миллий ва Халқаро ташкилотлар фаолиятининг ўрни (XX–XXI асрлар). – Тошкент, Yosh kuch press matbuoti, 2017. – 297 б.

²⁴ Дресвянская Г.Я. Музей ва жамият // Мозийдан садо. 2000. - № 1-2. Исмаилова Ж. Музей – тарих кўзгуси // Мозийдан садо. – Тошкент, 2003. – № 2 (18). – Б. 17-78.; Содиқова Н. Ўрта Осиёда музейларнинг шаклланиши // Мозийдан садо. 1999. - № 1-2.; Иноятов Қ. Ватанга муҳаббат шу ерда туғилади // Мозийдан садо. – Тошкент, 1999. – № 3. – Б. 4-7.; Қаюмов Р. Самарқанд давлат музей кўриқхонасининг халқаро алоқалари // Мозийдан садо. – Тошкент, 2005. – № 4. – Б. 11-12.; Левтеева Л. Юбилейные выставки в музее истории Узбекистана // Мозийдан садо. – Ташкент, 2006. – № 2 (30). – С. 34-37.; Ртвеладзе Э. Из истории Великого Шёлкового пути // Мозийдан садо. – Ташкент, 1999. – № 3. – С. 8-13.; Фатхуллаев Р. Музей ишида замонавий ахборот технологияси // Мозийдан садо. – Тошкент, 2002. – № 2 (14). – Б. 8-11.; Хабибуллаев Н. Темурийлар тарихи давлат музейи // Мозийдан садо. – Тошкент, 1999. – № 4 (32). – Б. 5-8.; Шу муаллиф. Ўзбек музейларининг истиқболи // Мозийдан садо. – Тошкент, 1999. – № 1-2. – Б. 12-13.; Ёрмухаммедов Ў. Нажотбахш қарор // Гулистон. – Тошкент, 1995. – № 2. – Б. 28-29. Вохидов Ш., Ёқубов Ж. Кичик масканларнинг улкан вазибалари // Мозийдан садо, Тошкент, 2000. – № 2. – Б. 18-20.

²⁵ Курязова Д.Т. Музей иши асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2020. – 180 б.

²⁶ Ўзбекистон маданият мероси муаллифлик туркуми: Ўзбекистон давлат санъат музейи тўпламларида Ўзбекистон санъати. – Т.: Uzbekistan Today, 2018. – 448 б.

²⁷ Ўзбекистон Республикаси Маданият мерос агентлиги архиви. Б-4307. К-40. Предварительные работы по памятнику архитектуры жилого дома Файзуллы Ходжаева. Ташкент, 1979 г. – 65 с.; Ўзбекистон Республикаси Маданият мерос агентлиги архиви. Т-6298. Д-69. Предварительные работы по памятнику архитектурные резиденция Князя Н.К.Романова. Ташкент, 1980 г. – 25 с.; Ўзбекистон Республикаси Маданият мерос агентлиги архиви. Т-5060. Д-69. Книга Т. Исследования памятника архитектуры перед началом реставрационных работ. Дворец Князя Н.К.Романова в г. Ташкенте (флигель). Ташкент, 1981 г. – 32 с.; Ўзбекистон Миллий архиви. 2296-жамғарма, 3-рўйхат, 11-йиғма жилд, 30-31 варақлар.; Ўзбекистон Миллий архиви. 2296-жамғарма, 7-рўйхат, 299-йиғма жилд.; Ўзбекистон Миллий архиви. 2296-жамғарма, 7-рўйхат, 568-йиғма жилд.; Ўзбекистон Миллий архиви. 2487-фонд. 2-рўйхат, 885-иш, 54-59 варақлар.; Ўзбекистон Миллий архиви. 394-фонд, 1-рўйхат, 300-иш, 57-варақ.

doir tarixiy-nazariy va monografik masalalarni ishlab chiqishda tadqiqotchilarning qo‘shgan muhim hissasini e‘tirof etgan holda, mazkur hududdagi tarixiy obyektlarni saqlash, muzeylashtirish hamda turizm infratuzilmasida tutgan o‘rnini oshirishga bag‘ishlangan nazariy-tahliliy tadqiqotlar tizimli olib borilmaganini ta’kidlash mumkin.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IL-422105582 “O‘zbekiston badiiy ta’lim tizimida “Onlayn muzey” elektron galereyasini yaratish” (2019-2021-yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Sirdaryo viloyati madaniy meros obyektlarini muzeylashtirish jarayonlari va rivojlanish bosqichlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Sirdaryo viloyati madaniy meros obyektlarini muzeylashtirishning badiiy xususiyatlarini ochib berish;

Sirdaryo viloyati madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish jarayonlarini metodologik asoslari va rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash;

Sirdaryo viloyatidagi arxeologik yodgorliklar va madaniy meros obyektlarini tizimli tavsiflash;

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Sirdaryo viloyati hududiga tegishli madaniy meros obyektlarini tasniflash;

Viloyat muzeylarining madaniy-ma’rifiy faoliyatining ijtimoiy-madaniy ahamiyatini ochib berish;

Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida saqlanayotgan rangtasvir kolleksiyasining shakllanishi bosqichlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi faoliyatining rivojlanish jarayoni belgilangan.

Tadqiqotning predmetini Sirdaryo viloyati hududidan topilgan arxeologik ashyolar, Turkiston rus arxitekturasi hamda muzeyning rangtasvir kolleksiyasi, amaliy san’at namunalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada xronologik, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, atributsiya, tasniflash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Sirdaryo viloyatidagi Eski Xovos yodgorligidan topilgan sopol idishlar, chiroqlar, muhrlar, ip yigirish anjomlari va Anaxita haykalchasi kabi noyob topilmalar orqali hududda antik davrdan o‘rta asrlargacha uzluksiz rivojlangan amaliy san’at va haykaltaroshlik an‘analari mavjud bo‘lganligi aniqlangan;

Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati muzeyi amaliy san’at kolleksiyasida saqlanayotgan gilamdo‘zlik buyumlari (Ruminiya, Bolgariya, Turkmaniston, Qirg‘iziston) geometrik, ramziy motivlar ustunligi, kashta hamda to‘qimachilik mahsulotlari (Qashqadaryo, Surxondaryo-Boysun, Buxoro, Shahrisabz) etnik ramzlari hududda viloyat aholisi demografiyasi bilan bog‘liq etnoijtimoiy jarayonlarning o‘zaro ta’siri natijasida vujudga kelgani dalillangan;

Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining rangtasvir fond zahirasida O‘zbekiston rangtasvirining yetuk namoyondalari R.Choriyev (1960-1970) zamondoshlar portretlari, I.Rubin (1980) ziyolilar portretlari, I.Yenin (1980), A.Yusupov, Z.Inog‘omov (1970-1980) manzara janri, syuralizmida F.Ahmadaliyevlarning 1980-1990-yillarda ishlagan ijodiy asarlaridan tashkil topgan noyob kolleksiya to‘planganligi dalillangan;

Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati muzeyi fondining shakllanish dinamikasi birinchi bor ilmiy asosda o‘rganilgan bo‘lib, dastlab, 1986-yilda muzey kolleksiyasi 134 ta, 2006-yil 516 ta, 2009-yilda 782 ta, 2017-yilda Suratlar galereyasi faoliyati tugatilishi natijasida 116 ta rangtasvir asarlari ham muzey fondidan joy olganligi, bugungi kunda asosiy fond 14174 taga yetganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati muzeyi rangtasvir kolleksiyasida saqlanayotgan nodir asarlardan iborat katalogni yaratish hamda O‘zbekiston xalq shoiri To‘ra Sulaymon uy muzeyi ilmiy konsepsiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan;

Eski Xovos yodgorligidan topilgan sopol idishlar, chiroqlar, muhrlar, ip yigirish anjomlari va Anaxita haykalchasi hududda antik davrdan o‘rta asrlargacha amaliy san‘at, haykaltaroshlik va kulolchilik an‘analarini uzluksiz rivojlanganini ko‘rsatib, ushbu topilmalar qadimiy hunarmandchilik, uy-ro‘zg‘or madaniyati, diniy-mifologik tasavvurlarni o‘rganishda muhim manba bo‘lishi barobarida ta‘lim jarayonlarida “Me‘morchilik asoslari”, “O‘zbekiston me‘morchiligi san‘ati tarixi” kabi o‘quv qo‘llanmalarni yaratishda qo‘llanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi san‘atshunoslik va tarix fanlarida tan olingan yondashuv va usullarning qo‘llanilgani, katta hajmdagi arxiv hujjatlari, adabiyotlardan foydalanilgani, ularning aksariyati birlamchi manbalarga asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xulosa va natijalarni asoslashda san‘atshunoslik va qiyosiy yondashuvlarni qo‘llagan holda Sirdaryo viloyatida muzey faoliyati, uy muzeylarning tashkil etilishi hamda rivojlanishiga oid badiiy jarayonlar tizimli tahlil asosida yoritilgani bois ulardan mazkur muammoga oid nazariy xulosalarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ushbu natijalar Oliy va o‘rta maxsus bilim yurtlarida san‘atshunos, muzeyshunos, madaniy turizm mutaxassisliklari uchun amaliy qo‘llanma vazifasini o‘tashi, shuningdek, ulardan “Muzeyshunoslik”, “O‘zbekistonda muzey ishi tarixi”, “O‘zbekiston me‘morchiligi san‘ati tarixi” kabi mutaxassislik fanlarini o‘qitishda va ular bo‘yicha yangi darslik, o‘quv qo‘llanma hamda o‘quv kurslar ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. Sirdaryo viloyati madaniy meros obyektlarini ilmiy tadqiq etish tarixi va muzeylashtirilishi ilmiy tadqiqot ishini o‘rganish yuzasidan olingan quyidagi ilmiy natijalar asosida:

Sirdaryo viloyatidagi Eski Xovos yodgorligidan topilgan sopol idishlar, chiroqlar, muhrlar, ip yigirish anjomlari, Anaxita haykalchasi kabi noyob topilmalar

orqali hududda antik davrdan o'rta asrlargacha uzluksiz rivojlangan amaliy san'at, haykaltaroshlik va bezakli keramika an'analari mavjud bo'lganligi bo'yicha olingan natijalardan "O'zbekiston me'morchiligi san'ati tarixi" nomli o'quv qo'llanmasini yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentabrdagi 438-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 676-354-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada qo'llanma Sirdaryo viloyati madaniy meros obyektlarini muzeylashtirish rivojlanishiga doir ilmiy-tadqiqot materiallari bilan boyitilishi, me'moriy yodgorliklarga oid badiiy jarayonlarni qo'shimcha manbalar to'ldirilishiga xizmat qilgan;

Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati muzeyi amaliy san'at kolleksiyasida saqlanayotgan gilamdo'zlik buyumlarida (Ruminiya, Bolgariya, Turkmaniston, Qirg'iziston) geometrik, ramziy motivlar ustunligi, kashta hamda to'qimachilik mahsulotlarida (Qashqadaryo, Surxondaryo-Boysun, Buxoro, Shahrisabz) etnik ramzlar, hududiy o'ziga xosliklari viloyat aholisi demografiyasi bilan bog'liq etnoijtimoiy jarayonlarning o'zaro ta'siri natijasida vujudga kelgani bo'yicha olingan natijalardan Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati muzeyi amaliy san'at fondini takomillashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi madaniy meros agentligining 2024-yil 8-noyabrdagi 02-05/4247-son ma'lumotnomasi). Natijada muzeydagi amaliy san'at kolleksiyasining yuzaga kelishi va rivojlanishi kuzatilgan etnoijtimoiy jarayonlarni yoritishga xizmat qilgan;

Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining rangtasvir fond zahirasida O'zbekiston rangtasvirining yetuk namoyondalari R.Choriyev, I.Rubin, I.Enin, A.Yusupov, Z.Inog'omov, F.Axmadaliyevlarning 1980-1990-yillarda ishlagan ijodiy asarlaridan tashkil topgan nodir kolleksiya to'planganligi bo'yicha olingan natijalardan Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati muzeyi rangtasvir zahirasini takomillashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi madaniy meros agentligining 2024-yil 8-noyabrdagi 02-05/4247-son ma'lumotnomasi). Natijada Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining rangtasvir fond zahirasida saqlanayotgan noyob asarlar bilan tanishish imkonini bergan;

Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati muzeyi 1986-yilda tashkil etilganda dastlab muzey kolleksiyasi soni 134 ta, 2006-yil 516, 2009-yilda 782 ta, 2017-yilda Suratlar galereyasi faoliyati tugatilishi bilan 116 ta rangtasvir asarlari ham muzey fondidan joy olganligi, bugungi kunda asosiy fond 14174 taga yetganligi bo'yicha olingan natijalardan Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati muzeyi fondini takomillashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi madaniy meros agentligining 2024-yil 8-noyabrdagi 02-05/4247-son ma'lumotnomasi). Natijada Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati muzeyi rangtasvir kolleksiyasining yuzaga kelishi va rivojlanishi kuzatilgan badiiy jarayonlarni tahlil qilishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta (ulardan 5 tasi respublika va 3 tasi chet el

jurnallarida) e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 153 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi asoslanib, davriy chegarasi, o'rganilish darajasi, maqsad va vazifalari, tadqiqotning obyekti va predmeti yoritilgan, muammoga oid manbalar tahlil qilingan, tadqiqot metodlari asoslangan, mavzuning ilmiy yangiligi, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar, tadqiqot aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, tarkibiy tuzilishi tavsiflangan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda madaniy meros obyektlarini o‘rganish, saqlash va ulardan foydalanish masalalari”** deb nomlangan birinchi bobida madaniy meros obyektlarini saqlash va muzeylashtirish tajribasiga oid ilmiy adabiyotlarning o'rganilganligi xronologik tarzda yoritilgan.

O‘zbekiston hududidagi madaniy meros obyektlarini saqlash, o‘rganish va muzeylashtirish jarayonlari masalalari ilmiy adabiyotlarda bosqichma-bosqich yoritilgan. Ushbu sohadagi dastlabki ilmiy tadqiqotlar asosan Turkiston o‘lkasining madaniy va tarixiy merosini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, bu boradagi eng muhim manbalar V. Bartold, B. Lunin, A. Semenov kabi olimlar tomonidan tahlil etilgan. Ularning asarlarida Turkiston madaniyatining shakllanishi, tarixiy-madaniy jarayonlarning ilmiy asosda tahlil etilishi hamda moddiy meros obyektlarini o‘rganish metodologiyasi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

1917-yilgacha Turkistonda tashkil etilgan ko'rgazmalar va ularning yangi muzeylar vujudga kelishidagi o'rni G.Chabrov tomonidan chuqur tahlil qilingan. Olim o'z tadqiqotlarida har bir ko'rgazmaning ekspozitsion tarkibini, ularning tashkil etilish maqsadini hamda mustamlakachilik davri ma'muriyati va savdo-sanoat doiralarning bu ko'rgazmalar orqali ko'zlagan siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini atroflicha yoritgan²⁸. Taniqli olim Y.G'ulomov²⁹ tomonidan yozilgan asarlar esa O'zbekistonning moddiy madaniyat yodgorliklarini asrash, ularni muhofaza qilish va ilmiy jihatdan o'rganish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, bu borada milliy ilmiy maktabning shakllanishiga asos bo'lgan. Sobiq ittifoq davrida yaratilgan ilmiy adabiyotlarning ko'pchiligi, jumladan M.Yusupov³⁰ risolasi, kommunistik mafkura talablari asosida yozilgan bo'lsa-da, mazkur manbalar o'z davrining muzeylar faoliyati, tashkil etilish tarixi va ularning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatini o'rganishda muhim o'rin tutadi.

O‘zbekiston muzeyshunoslik sohasi tarixini o‘rganishda N.Sodiqovanning³¹

²⁸ Чабров Г. Выставочная работа в Туркистанском крае (1865-1916гг.) в сб.: Труды Музея истории. Узбекской ССР, вып. III. – Т., 1956. - С.118-135.

²⁹ G'ulomov Ya. O'zbekistonda moddiy-madaniy yodgorliklarni saqlash, o'rganish yo'llari. - Toshkent:1934. – B. 120.

³⁰ Юсупов М. 50 лет Самаркандского музея (1896-1946 гг.), Самарканд, 1948. – С.58.

³¹ Садикова Н. Музейного дело в Узбекистане. - Тошкент: Фан, 1975. – 290 с.; Историография и источники по музейному строительству. – Т.: Фан, 1987. –Б. 98.

tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Olimaning asarlarida mamlakat muzey ishining bir asrlik taraqqiyoti, yutuqlari va mavjud muammolari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotlarda mafkuraviy omillar bo'lishiga qaramay, ularning ilmiy qiymati va tarixiy manbaviy ahamiyati yuqori hisoblanadi.

XX asr boshlarida tarixiy-madaniy obyektlarni saqlash va ta'mirlash borasida V.Bartold, T.Qori Niyozov, B.Lunin, A.Semenov, M.Masson, G.Pugachenkova, G.Chabrov, Y.G'ulomov, M.Yusupov, N.Sodiqova, B.Zasipkin, A.Mironov, Y.Gulomov, X.Oxunov, S.Kabanov, A.Terenojkin, V.Shishkin, S.Tolstov, M.Qoraxonov, A.Xushbekov, B.Savitskiy, N.Jukova³² kabi olimlarning ilmiy faoliyati diqqatga sazovordir. Ayniqsa, 1926-1928-yillarda uch marotaba nashr etilgan "Известия Среднеазиатского комитета по делам музеев и охране памятников старины, искусства и природы" to'plami muhim tarixiy manba sifatida alohida e'tirof etiladi. Mazkur nashrlarda respublika muzeylari faoliyatining yillik tahlili keltirilgan bo'lib, birinchi nashrdagi A.Mironovning "Пятилетняя организационная, научная и практическая деятельность Средазкомстариса" deb nomlangan maqolasi³³ Турккомстарис (Туркестанский комитет по делам музеев и охране памятников старины, искусства и природы) faoliyatiga bag'ishlangan³⁴.

1930–1950-yillar mobaynida olib borilgan tadqiqotlar asosan arxeologik yodgorliklarni o'rganish va saqlash masalalariga qaratilgan bo'lib, bu boradagi maqolalar "Труды Института истории и археологии"³⁵ to'plamining birinchi jildida jamlangan.

1960-yillardan boshlab tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish masalalari

³² Чабров Г. Выставочная работа в Туркистанском крае (1865-1916гг.) в сб.: Труды Музея истории. Узбекской ССР, вып. III. – Т., 1956. – С.118-135.; G'ulomov Ya. O'zbekistonda moddiy-madaniy yodgorliklarni saqlash, o'rganish yo'llari. – Toshkent, 1934. – B. 120.; Юсупов М. 50 лет Самаркандского музея (1896-1946 гг.), Самарканд, 1948. – С.58. ; Садикова Н. Музейного дело в Узбекистане. - Тошкент: Фан, 1975. – 290 с.; Историография и источники по музейному строительству. – Т.: Фан, 1987. – Б. 98. ; Mironov A.A. "Средазкомстарис"ning (sobiq "Турккомстарис") besh yillik faoliyati davomida tashkilotning ilmiy va amaliy ishlari" // Известия Средазкомстариса. – Toshkent, 1926. – Вып. I. – С. 18–42.; G'ulomov.Ya.G'.O'zbekistonda moddiy-madaniy asarlarni saqlash, o'rganish yo'lida. -T.,1934.; Oxunov X. Узбекский комитет по охране и изучению памятников материальной культуры. -Т., 1936.; Термезская археологическая комплексная экспедиция. Сборник статей. – Т., 1940.; Труды Института истории и археологии // Материалы по археологии Узбекистана. – Т., 1948.; Засипкин Б.Н. Архитектура Средней Азии. – М., 1948.; Толстов С.П. Древняя культура Узбекистана. – Т., 1943.; Карий Ниязов Т.Н. Социалистическая культура узбекского народа. – Т., 1949; o'sha muallif. Очерки истории культуры и науки Советского Узбекистана: 1917-1953. – Т., 1967.; o'sha muallif. О узбекском народе и его культурном наследии. – Т., 1960.; Қорохонов М. Советский Узбекистан и его культура. – Т., 1957.; Хушбеков А. Из истории культурного строительства в Узбекистане в годы первой пятилетки. – Самарканд, 1959.; Қори Ниёзий Т.Н. Ўзбекистон ССР моддий маданият ёдгорликларини сақлаш ва ўрганиш. – Т., 1971.; Гулямов Я.Г., Исламов У., Асқаров А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зарафшана. – Т., 1966.; Жабборов И.М. Кўхна харобалар сири. – Т., 1968.; Ставиский Б.Я., Жукова Н.Н. Из истории создания Турккомстариса // Общественные науки в Узбекистане. – 1981.; O'sha mualliflar. Первые шаги государственной системы охраны и реставрации памятников Средней Азии // Искусство. – 1981.; Проблемы сохранения памятников культуры и искусства в советских республиках Средней Азии // Консервация и реставрация музейных художественных ценностей. – 1989.; Ставиский Б.Я., Лепёков Л.А. Охрана и реставрация памятников культуры и искусства Средней Азии // Реставрация музейных ценностей в СССР. – М., 1982. С -157-167.

³³ Mironov A.A. "Средазкомстарис"ning (sobiq "Турккомстарис") besh yillik faoliyati davomida tashkilotning ilmiy va amaliy ishlari" // Известия Средазкомстариса. – Toshkent, 1926. – Вып. I. – С. 18–42.

³⁴ O'sha kitob. - Вып. III.-Т., 1928.

³⁵ Термезская археологическая комплексная экспедиция. Сборник статей. – Т., 1940.; Труды Института истории и археологии // Материалы по археологии Узбекистана. – Т., 1948. -217 с.

yanada tizimli tus olgan. T. Qori Niyozovning “O‘zbekiston SSR moddiy madaniy yodgorliklarini saqlash va o‘rganish”³⁶ nomli risolasi o‘sha davrdagi yodgorliklarni muhofaza qilish tajribasini tahlil etadi. Shu yillarda arxeologik qazishmalar, restavratsiya va rekonstruksiya ishlari kengayib, milliy madaniy merosni ilmiy asosda o‘rganish yangi bosqichga ko‘tarilgan³⁷. 1967-yil 27-martda “O‘zbekiston tarixi va moddiy madaniyat yodgorliklarini saqlash jamiyati” tashkil etildi. 1968-yilda “Madaniy yodgorliklarni himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, u butun ittifoq miqyosida bunday hujjat qabul qilinganidan sakkiz yil oldin amalga oshirilgan edi. 1979-yilda esa Madaniyat yodgorliklarini muhofaza qiluvchi davlat tizimi sifatida “Madaniyat yodgorliklari ilmiy-ishlab chiqish bosh boshqarmasi” (Glav NPU) tuzildi.

1980-yillarda B. Stavskiy va N. Jukovanning “O‘rta Osiyoda madaniyat va san‘at yodgorliklarini muhofaza qilish muammolari”³⁸ nomli maqolasi tarixiy manbalar asosida yodgorliklarni saqlash va muhofaza qilishning ilmiy asoslarini ochib beradi. 1990–2000-yillar oralig‘ida esa madaniy meros obyektlarini konservatsiya va restavratsiya qilishga doir bir qator qonun hujjatlari qabul qilinib, ularning ijrosini ta‘minlash uchun maxsus ishchi guruhlar tashkil etildi.

Mazkur yillarda N.Sadikova, I.Glass, P.Kornilov, E.Ploshnisa, V.Galovkin, V.Belikov, M.Bekmurodov, M.Rashidov, Sh.O‘ljayeva, E.Smirnova kabi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar O‘zbekistonning moddiy madaniy merosini saqlash, restavratsiya qilish, muzeylashtirish va ekspozitsion faoliyatini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan bo‘lsa, Sirdaryo viloyati o‘lka tarixini va madaniy meros obyektlari ta‘mirlash, saqlash bo‘yicha esa Sh.Asqarov³⁹, M.Ahmedov, V.Bartold⁴⁰, A.Ziyayev⁴¹, V.Masson⁴², M.Masson⁴³, A.Gritsina⁴⁴, V.Karavaev⁴⁵, V.Nilsen, D.Nozilov, G.Pugachenkova, H.Po‘latov⁴⁶, L.Rempel, E.Retveladze⁴⁷lar tomonidan ilmiy izlanish olib borilganligi diqqatga sazovordir.

So‘nggi yillarda mazkur sohada davlat siyosatining yangi bosqichi shakllandi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrdagi “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan

³⁶ Қори Ниёзий Т.Н. Ўзбекистон ССР моддий маданият ёдгорликларини сақлаш ва ўрганиш. – Т., 1971. -304 б.

³⁷ Гулямов Я.Г., Исламов У., Асқаров А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зарафшана. – Т., 1966.; Жабборов И.М. Кўҳна харобалар сири. – Т., 1968. -192 б.

³⁸ Ставиский Б.Я., Жукова Н.Н. Из истории создания Турккомстариса // Общественные науки в Узбекистане. – 1981.; О‘sha mualliflar. Первые шаги государственной системы охраны и реставрации памятников Средней Азии // Искусство. – 1981, №4.; Проблемы сохранения памятников культуры и искусства в советских республиках Средней Азии // Консервация и реставрация музейных художественных ценностей. – 1989. – Вып. I.; Ставиский Б.Я., Лепёков Л.А. Охрана и реставрация памятников культуры и искусства Средней Азии // Реставрация музейных ценностей в СССР. – М., 1982. С -157-167.

³⁹ Асқаров Ш.Д. Генезис архитектуры Узбекистана. -Т.: 2014. -224 с.

⁴⁰ Бартолд В.В. История культурной жизни Туркестана, - Л.: 1927. -261 с.

⁴¹ Зияев А.А. “Чиназ” (древность, средневековье, современность). Историко-архитектурный очерк. -Т.: 2017. -280 с.

⁴² Массон В.М. Проблема изучения цистерн-сардоба. – Ташкент, 1935. С -44.

⁴³ Массон М.Е. Проблема изучения цистерн-сардоба. Вып.8. – Ташкент, 1935. С -45.

⁴⁴ Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. –Тошкент, 1992. -114 с.

⁴⁵ Караваев В.Ф. Голодная степь в ее прошлом и настоящем. Пг., 1914. -180 с.

⁴⁶ Пўлатов Х.Ш. Шахарсозлик тарихи. –Тошкент, 2008. -169 б.

⁴⁷ Ртвеладзе Э.В. Великий шелковый путь Энциклопедический словарь Ташкент, 1999. -277 с.

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁴⁸gi qarori bu yo'nalishda muhim huquqiy asos bo'ldi. Shu bilan birga, 2018-yilda dunyoning 40 mamlakatidan 300 dan ortiq sharqshunoslar tashabbusi bilan O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish bo'yicha Butunjahon jamiyati (WOSCU) tashkil etilib, 2019-yilda Parijda ro'yxatdan o'tgan, 2024-yilda esa Toshkentda o'z vakolatxonasini ochdi.

Madaniy merosni asrab-avaylash, o'rganish va uni ommalashtirish bo'yicha so'nggi 5 yil ichida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining BMT Bosh assambleyasi 75-sessiyasida ilgari surgan bir qator tashabbuslari ichida xalqimiz madaniyati va tarixini ommalashtirishga qaratilgan madaniy forum o'tkazish taklifi xalqaro hamjamiyat, xususan YUNESKO tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlandi⁴⁹. Mazkur yillar davomida "O'zbekistonning 100 nodir qo'lyozmasi" megaloyiha doirasida aynan O'zbekiston madaniy meros obyektlariga oid "O'zbekistonning me'moriy obidalari kartografiyasi", "O'zbekistonning me'moriy epigrafikasi", "O'zbekistonning me'moriy obidalari katalogi" kabi o'zbek, rus va ingliz tillarida kitob-albomlar nashr ettirildi. Madaniy meros agentligi tomonidan arxeologik tadqiqotga ham alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Jumladan, bugungi kungacha 60 dan ortiq arxeologik tadqiqot ishlarining 15 tasi Angliya, AQSH, Germaniya, Rossiya, Fransiya, Xitoy, Yaponiya kabi mamlakatlarning yetuk olimlari ishtirokida amalga oshirildi. Mazkur olimlar tomonidan o'tkazilgan seminar-treninglarda Sirdaryo viloyati Madaniy meros boshqarmasi xodimlari ham ishtirok etishgan.

2019-yil 4-oktabrda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 846-son qaroriga binoan, O'zbekistonning moddiy madaniy merosining ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxati tasdiqlandi. Ushbu hujjat respublika hududidagi madaniy meros yodgorliklarini tizimli hisobga olish va ularni huquqiy himoya qilish yo'lidagi muhim bosqich bo'ldi. Ro'yxatga ko'ra, mamlakat bo'yicha jami 8208 ta obyekt mavjud bo'lib, ularning 4748 tasi arxeologiya, 2250 tasi arxitektura, 678 tasi monumental san'at yodgorliklari hamda 532 tasi diqqatga sazovor joylar sifatida qayd etilgan⁵⁰. Biroq, amaliy faoliyat davomida ayrim restavratsiya va tiklash ishlari ilmiy-me'moriy talablar asosida olib borilmaganligi natijasida, respublika bo'yicha 14 ta moddiy madaniy meros obyektlarini ta'mirlash-tiklash loyiha hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi Ilmiy-ekspert kengashi bilan kelishilmasdan ta'mirlash-tiklash ishlari bajarilgan⁵¹. Shu sababli so'nggi yillarda davlat darajasida ushbu sohani kompleks tarzda isloh qilish va muvofiqlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar kuchaytirildi. Jumladan, 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentning "Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-

⁴⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.12.2018-yildagi "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4068-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-4113465?ONDATE=27.05.2020%2000>.

⁴⁹ Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 75-сессиясидаги нутқи. <https://www.xabar.uz/jamiyat/sessiyadagi-nutq>.

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 846-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4543266>.

⁵¹ O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi Muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasining 2021-yil uchun hisoboti.

tadbirlari to'g'risida"⁵²gi qarorining qabul qilinishi mazkur yo'nalishdagi islohotlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Qaror asosida 2023-2026-yillarda muzeylashtiriladigan arxeologik yodgorliklarning manzilli rejasi tasdiqlandi. Unga muvofiq, Dalvarzintepa, Mingtepa, Qal'atepa, Poykent, Afrosiyob, Tuproq qal'a, Qoratepa (afsuski, bu ro'yxatga Sirdaryo viloyatidagi Eski Xovos tepaligi kirmay qolgan) kabi yirik tarixiy obyektlarning bosqichma-bosqich muzeylashtirilishi belgilandi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda madaniy meros obyektlarini saqlash, restavratsiya qilish va muzeylashtirish sohasidagi tajriba tarixan shakllangan murakkab va ko'p bosqichli evolyutsion jarayonni aks ettiradi.

Dissertatsiyaning **“Sirdaryo viloyati madaniy meros obyektlarini tadqiqi va muzeylashtirilishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida Sirdaryo viloyati hududida joylashgan madaniy meros obyektlarining turlari, ularning hududiy taqsimoti hamda huquqiy maqomi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, viloyat bo'yicha jami 78 ta madaniy meros obyekti aniqlangan bo'lib, ulardan 18 tasi arxeologik, 15 tasi arxitektura, 41 tasi monumental san'at hamda 4 tasi diqqatga sazovor joylar toifasiga mansubdir. Ushbu obyektlarning barchasi respublika ahamiyatiga ega bo'lgan tarixiy-madaniy yodgorliklar sirasiga kiradi hamda davlat mulki sifatida ro'yxatga olingan.

Mazkur yodgorliklarning shakllanishida, ayniqsa XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi qurilish jarayonlari muhim o'rin tutadi. Turkistondagi rus shaharlarining qurilishi 1865-yilda yangi Toshkentning barpo etilishi bilan boshlangan bo'lib, bu jarayon Mirzacho'lni o'zlashtirish orqali Sirdaryo hududida ham faol tus olgan. Natijada viloyat markazi va atrofida ko'plab ma'muriy, xo'jalik va harbiy binolar qad rostlagan. Sirdaryo viloyati qurilish bo'limida o'z davrining tajribali muhandis va me'morlari - D.Zatsepin, F. Bazilevskiy, I.Lexanov, A.Benua, V.Yesakov, I.Pogoskiy, N.Gabbin, V.Novikov, R.Zarako-Zarakovskiy, I.Markevichlar ishlagan. Ayniqsa, 1873-yilda harbiy muhandis D. Zatsepin tomonidan Sirdaryo viloyatida qurilgan barcha ma'muriy binolar o'sha davrning tipik rus klassitsizmi uslubida bunyod etilgan. Keyingi yillarda ham bu hududda qurilish ishlari davom etib, 1890-yilda harbiy muhandislar tomonidan temiryo'l yo'nalishlari bo'ylab bir nechta suv saqlash minoralari qad rostlagan, ularning hozirga kelib faqat ikki tasi saqlanib qolgan. Shuningdek, 1895-yilda Cherniyayevning sobiq uy-joyi qurilib, dastlab Xovos temiryo'l stansiyasi deposida ishlovchi xodimlar uchun mo'ljallangan bo'lsa, bugungi kunda bu bino yettita xonadon tomonidan o'zlashtirilib, yashash uchun foydalanilmoqda.

Sirdaryo viloyatidagi XIX asr oxiriga oid yana bir muhim me'moriy obida - Alikseyevning sobiq uy-joyidir. Ushbu bino 1890-yillarda Markaziy Osiyoga ko'chib kelgan rus zodagonlaridan biri - Alikseyevga tegishli bo'lib, 1895-yilda qurilgan. O'sha davrda inshoot turar-joy sifatida foydalanilgan bo'lsa-da, uning me'moriy shakllanishida o'sha zamonning rus klassitsizmi uslubi aniq namoyon bo'ladi. Bino kompozitsion jihatdan mutanosib, fasad qismlarida esa monumental shakllar va dekorativ elementlarning uyg'unligi kuzatiladi. Ushbu obida Sirdaryo

⁵² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 25 майдаги “Музейларда хизматлар соҳасини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ 261-сонли қарори. <https://lex.uz/docs/6040013>.

viloyati Guliston shahri Navoiy shoh ko'chasida joylashgan bo'lib, bugungi kunda Sirdaryo viloyati madaniyat boshqarmasi tasarrufidagi "Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi"ga aylantirilgan⁵³. Ushbu muzey viloyat hududining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini, ayniqsa XIX–XX asrlar davridagi madaniy va ijtimoiy hayotni yoritishda muhim ilmiy markaz vazifasini bajaradi.

Hududning madaniy meros obyektlari orasida o'zining noyob me'moriy yechimi bilan ajralib turuvchi inshoot - Yog'ochli sardoba - bugungi kunda ham ilmiy tadqiqotlar diqqat markazida qolmoqda. 1868-yilga oid tarixiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Sirdaryo vohasi hududida mazkur davrda atigi ikki dona sardoba - Mirzarabot va Yog'ochli sardobalari faoliyat yuritgan. Tadqiqotchi A. Xoroshxin o'z izlanishlarida ushbu sardobalar suv saqlash inshooti sifatida xizmat qilgan bo'lishi bilan bir qatorda, atrof hududlarda sug'orish tizimining shakllanishida muhim rol o'ynaganini alohida ta'kidlaydi⁵⁴. Mazkur ilmiy fikrni V. Krestovskiyning 1879-yilda olib borgan tadqiqotlari ham tasdiqlaydi. U o'z kuzatuvlarida Rossiya istilosidan oldingi davrda Sirdaryo vodiysida suv tanqisligi kuzatilmaganini, hatto XIX asrning birinchi yarmidayoq Jizzaxdan ariq orqali sug'oriladigan bog'lar mavjud bo'lganini qayd etadi. Bu esa hududda qadimdan rivojlangan meliorativ tizim mavjud bo'lganidan dalolat beradi. Keyingi yillarda mazkur inshootni o'rganish ishlari davom ettirilib, akademik M. Massonning ilmiy izlanishlari natijasida 1935-yilda "Sardobalarni o'rganish muammolari" nomli kitobi⁵⁵ nashrdan chiqadi. Olimning taklifiga binoan, 1934-yil sentabr oyida botanik P. Gomelitskiy Yog'ochli sardobani joyida o'rganib chiqib, binoning qurilishida ishlatilgan g'ishtlarning o'lchamini 25×25×5 sm deb qayd etgan. Shu yili geolog B. Nasledov ham mazkur inshootni tekshirish jarayonida devor yon bag'rlarida ishlatilgan g'ishtlarning o'lchami 24-27 sm oralig'ida ekanligini aniqlagan⁵⁶.

Oradan yillar o'tib, 1977-yil 10-noyabrda mazkur sardobada O'zbekiston maxsus ilmiy restavratsiya ishlab-chiqarish ustaxonalarining 4 ijodiy jamoasi arxitektor D.Parpidjanov, katta muhandis-geolog Abduraximov va ishchi Isxakovlar boshchiligida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sardobaning kvadrat shakldagi gumbazi yuqori sifatli pishirilgan g'ishtlardan barpo etilgan bo'lib, ichki diametri 15 metr, balandligi esa 12 metrni tashkil etadi. Uning tuynuklari (havo teshiklari) ichki poldan 2 metr balandlikda joylashgan bo'lib, bu konstruktiv yechim suv sathini barqaror saqlash hamda ichki muhitda havo almashinuvini ta'minlashga xizmat qilgan. 1914-yilda V.Karavayev tomonidan olingan fotosuratlarda⁵⁷, sardoba gumbazining butunligicha saqlangani ko'rinsa-da, bugungi kunda uning qisman vayron bo'lganligi kuzatiladi. Ushbu holat, tabiiy omillar, vaqt ta'siri va texnik xizmat ko'rsatishning sustligi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, viloyat hududida joylashgan qadimiy yodgorliklar ham

⁵³ Ходжиев М.Т., Кудратов С., Самадов Б., Сирдарё тарихи. – Гулистон: 2020. С-11-15.

⁵⁴ Архив агенство культурного наследия. Сардоба Агачли в Иличёвский р-не Сырдарьинской обл. Сыр-д 7176. П18. - 1977 г. - С.6.

⁵⁵ М.Массон. Проблема изучения цистерн-сардоба. Издание Комитета наука при СНК УзССР. Ташкент. - 1935 г. - С.45.

⁵⁶ Архив агенство культурного наследия. Сардоба Агачли в Иличёвский р-не Сырдарьинской обл. Сыр-д 7176. П18. - 1977 г. - С.6.

⁵⁷ Караваев К. Общий вид почтовой станции. Агачли Чиназ-Джизакского тракта. - 1871. - Б.17-18.

mintaqaning tarixiy-madaniy manzarasini chuqur anglashda beqiyos ahamiyatga ega. Xususan, Sho‘rbuloqsoy vodiysi bo‘yida joylashgan Eski Xovos yodgorligi Sirdaryo viloyatidagi eng qadimiy arxeologik obyektlardan biri sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi⁵⁸. Mazkur obyekt nafaqat Sirdaryo viloyatining, balki butun O‘zbekistonning qadimiy tarixini yorituvchi arxeologik majmualar qatoriga kiradi. Shu tarzda, viloyatdagi arxeologik meros namunalari o‘tmish madaniyatining shakllanish jarayonlarini tahlil etish va ularni muzeylashtirish orqali ilmiy muomalaga kiritish imkonini beradi.

1980-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Y.G‘ulomov nomidagi Arxeologiya institutining Sirdaryo guruhi tomonidan arxeologik ekspeditsiya ishlari qayta tiklanadi. Mazkur ilmiy tadqiqotlar natijasida o‘rganilgan hududlarda qadimgi davrlarda yodgorliklar soni hozirgidan bir necha barobar ko‘p bo‘lganligi haqidagi ilmiy xulosa ilgari surildi⁵⁹. Bu holat tabiiy va ijtimoiy jarayonlar natijasida ayrim yodgorliklarning yo‘qolib ketgani yoki ularning qoldiqlari yer osti qatlamlariga chuqur ko‘milganligidan dalolat beradi. Mazkur yilda ushbu arxeologik obyekt A.Bilalov tomonidan o‘rganilgan bo‘lishiga qaramasdan hech qanday amaliy natijalar taqdim qilinmagan. Keyinchalik 1984, 1988–1989-yillarda arxeologlar A.Gritsina va M.Pardayev rahbarligidagi ekspeditsiyalar natijasida bir qator qazish ishlari amalga oshirilib, yodgorlikning madaniy qatlamlari chuqurroq o‘rganildi⁶⁰. Arxeolog A.Gritsina Eski Xovos yodgorligining eng pastki madaniy qatlamlarining davriy sanasi yanada qadimgiroq ekanligi haqida fikr yuritgan⁶¹.

2003-2004-yillarda huddi shu tadqiqotchilar tomonidan yodgorlik hududida mil.av. III asrga oid bir yarim g‘ishtdan ko‘tarilgan mudofaa devor qoldiqlari va qadimgi Farg‘onadagi Eylatan madaniyati (mil.av. VI-III asrlar)ga xos, lekin mahalliy kulollar tomonidan yasalgan sopol idishlar topilgan. Eski Xovos yodgorligida keyinchalik 2010-yildan keng ko‘lamdagi qazish ishlari olib borilib, uning quyi qatlamlari ilk antik davrga tegishli ekanligi aniqlangan⁶².

2014-yilda O‘zbekiston Arxeologiya instituti Sirdaryo jamoasining ushbu yodgorlikda olib borgan arxeologik ekspeditsiya natijasida qazishma olib borilgan hududning janubiy qismida ajralish devori yaqinida unumdorlik ma‘budasi Anaxitaning terakota haykalchasi topilgan. Haykalchanning balandligi 7,8 sm, maksimal eni 4,0 sm bo‘lgan. Uning ikki tomoni qizil angob bilan qoplangan. Qadimgi Sharq mamlakatlarida Anaxita-unumdorlik ma‘budasi, homiysi hisoblangan. So‘g‘dlarning honadonida e‘zozlangan haykalcha qo‘lida gullar,

⁵⁸ Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. – Т., 1992. – 49 с.

⁵⁹ Алимов У.А., Сверчков Л.М. Археологические исследования в Сырдарьинской области // ИМКУ. Вып.21. – Т.: Фан. 1987. - С.132-138.

⁶⁰ Массон М.Е. Проблемы изучения цистерн сардоба. – Т.: Изд. Комитета Наук при СНК УзССР, 1935. - С.16., Билалов А.И. Из истории ирригации Уструшаны. (МКУ. Вып. 4). - Душанбе: Дониш. 1980. - С.37., Грицина А.А., Пардаев М.Х. Археологическое изучение Кизилинского массива // Археологические работы на новостройках Узбекистана. – Т.: Фан, 1990. - С. 177-179.

⁶¹ Madaniy meros agentligi arxivi. A.A.Gritsina. Sirdaryo viloyati 1988-yilgi tadqiqot hisoboti. 1988-y. Inv. 9486. 87 b.

⁶² Грицина А.А., Содиков М. Эски Ховос ва унга қўшни худудлар қадим ва ўрта асрларда. - Самарқанд.- 2015.

mevalar yoki oltin ushlab turgan ayol sifatida tasvirlangan⁶³.

2015-2016-yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari A. Gritsina, K. Rahimov va U. Mamirovlarning ilmiy hisobotlarida batafsil yoritilgan bo‘lib, ular Sirdaryo vohasidagi qadimiy manzilgohlarning madaniy qatlamlari, topilmalarning tipologiyasi va funksional xususiyatlarini kompleks tarzda tahlil qilganlar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qazishma ishlar davomida topilgan artefaktlarning asosiy qismini kulolchilik buyumlari tashkil etadi⁶⁴. Bu holat, bir tomondan, hududda keramika ishlab chiqarish madaniyatining rivojlanganligini, ikkinchi tomondan esa aholining xo‘jalik faoliyati va turmush tarzida sopol idishlarning keng qo‘llanilganini tasdiqlaydi. Topilgan kulolchilik buyumlarining shakl, bezak, sir va texnik jihatdan farqlanishi esa ularning turli davrlarga oid ekanligini ko‘rsatib, Sirdaryo vohasida kulolchilik an‘analari uzluksiz ravishda davom etganini ilmiy asosda dalillaydi.

Eski Xovos yodgorligi o‘z davrida Toshkent vohasidagi Qanqa arxeologik yodgorligi bilan deyarli bir zamonda shakllangan. Qanqa ko‘hna shahri miloddan avvalgi III asrdan milodiy XIII asr boshlarigacha mavjud bo‘lgan. Uning xarobalari Toshkentdan 70 km janubi-g‘arbda, eski Ohangaron o‘zanining chap qirg‘og‘ida joylashgan. 1868-yilda bu yodgorlik ilk bor V. Vereshchagin tomonidan aniqlangan bo‘lib⁶⁵, 1896-yilda Turkiston havaskor arxeologlar to‘garagi a‘zolari Ye. Smirnov, I. Belyayev⁶⁶, 1969-1972-yillarda K. Abdullayev⁶⁷, 1993-1994-yillarda G. Bogomolov⁶⁸, 2008-yilda R. Ibragimov kabi olimlar tomonidan izchil o‘rganilgan.

2022-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi tomonidan olib borilgan kompleks ekspeditsiya esa Qanqa tarixiga oid yangi ilmiy dalillarni taqdim etdi. Ikkala yodgorlikning me‘moriy yechimlaridagi o‘xshashlik ularning davriy va madaniy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Biroq Eski Xovosning hozirgi kunga qadar to‘liq o‘rganilmaganligi va muzeylashtirilmaganligi ushbu obyektning himoyasi hamda ilmiy talqinida muammolarni keltirib chiqarmoqda. Tepalik atrofida bir nechta maqbaralari hozirgi kunda ham saqlanib qolgan hamda qayta ta‘mirlangandan so‘ng qadimiyligini yo‘qotganligi asoslandi. Shu sababli, Eski Xovos yodgorligini chuqur o‘rganish, uning arxeologik qatlamlarini to‘liq aniqlash, ilmiy restavratsiya prinsiplari asosida qayta tiklash va muzeylashtirish - Sirdaryo viloyatining madaniy merosini asrab-avaylashda ustuvor vazifa sifatida qaralishi lozim.

Shu bilan birga, Sirdaryo viloyatida tarixiy-madaniy merosni o‘rganish va muzeylashtirish borasida bir qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga qarashli Guliston davlat universitetida faoliyat yuritayotgan Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi bu boradagi muhim

⁶³ Ҳақимов.А.А. Ўзбекистон санъат тарихи қадимги давр, ўрта асрлар, ҳозирги замон. - Тошкент. - 2022. - Б.54-55.

⁶⁴ Madaniy meros agentligi arxivi. Sirdaryo viloyati Xovos yodgorligida olib borilgan ekspeditsiya natijalar hisoboti. A 1136. G-82. Samarqand, 2017. - B.60.

⁶⁵ Буряков Ю.Ф., Богомолов Г.И. Қанқа. Тошкент воҳаси археологияси. - 2009.

⁶⁶ Булатов Н.М. Принципы организации археологических музеев заповедников // Вопросы охраны, реставрации и пропаганды памятников истории и культуры. Вып. 3. НИИК. Труды 28. М., 1975.

⁶⁷ Кўҳна Шаркия шаҳри // Тошкент воҳаси археологияси. Т., 2011. - Б 34-36.

⁶⁸ Буряков.Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Т.: Фан, 1982. – С. 43-44.

tashabbuslardan biridir. Mazkur muzeyning tashkil etilishi Sirdaryo viloyatida milliy xotira, tarixiy adolatni tiklash va o‘tmish saboqlarini yosh avlodga yetkazish yo‘lidagi madaniy-ma’rifiy ishlarning amaliy ko‘rinishidir.

Ayni paytda, Sirdaryo viloyatida Qatag‘on qurbonlari muzeyi faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ularning xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi F-5598-sonli Farmoyish⁶⁹ ijrosini ta’minlash doirasida yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu hujjatga muvofiq, viloyatda tuman va mahalla kesimida, shuningdek, davlat arxivlari bo‘limlarida qatag‘on davri bilan bog‘liq hujjatlar, tarixiy manbalar va shaxsiy arxivlar bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari tizimli ravishda amalga oshirilmoqda, bu esa viloyatda madaniy xotira va tarixiy merosni chuqur o‘rganish jarayoniga yangi ilmiy turtki bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 9-iyundagi 321-sonli qarori⁷⁰ga muvofiq, Sirdaryo viloyatida milliy madaniy merosni asrash, targ‘ib qilish va muzey infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ushbu qaror doirasida To‘ra Sulaymon uy muzeyini tashkil etish bo‘yicha kompleks ishlar olib borilib, natijada muzey 2024-yil 4-dekabrda rasman ochildi. Bu tashabbus nafaqat adibning hayoti va ijodini keng jamoatchilikka tanitishga xizmat qilmoqda, balki viloyatda madaniy turizmni rivojlantirish va mahalliy tarixiy-madaniy obyektlarni muzeylashtirish jarayonini jadallashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, Sirdaryo viloyatidagi mavjud muzeylar faoliyatini tahlil qilish natijalari ularning ekspozitsion tizimi, saqlash sharoitlari va ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlarida bir qator muammo va kamchiliklar mavjudligini ko‘rsatadi. Jumladan, ayrim muzeylarda ekspozitsiyalar zamonaviy talablarga to‘liq javob bermasligi, interaktiv vositalarning yetarli emasligi, shuningdek, fondlarda saqlanayotgan ashyolarning ma’lum qismi ta’mirtalab holatda ekani aniqlangan.

Ilmiy nuqtai nazardan baholaganda, mazkur holat Sirdaryo viloyatida muzey ishini modernizatsiya qilish, muzey ekspozitsiyalarini ilmiy-konseptual asosda qayta qurish, shuningdek, restavratsiya va konservatsiya jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zaruratini ko‘rsatadi. Shu ma’noda, To‘ra Sulaymon uy muzeyining tashkil etilishi viloyat miqyosida madaniy siyosatning amaliy ifodasi bo‘lib, mavjud muzey tarmog‘ining yangilanishi va rivojlanishida muhim ilmiy-amaliy tajriba sifatida e’tirof etiladi.

Tadqiqotning **“Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi faoliyati va rivojlantirish masalalari”** deb nomlangan uchinchi bobi, asosan, viloyat o‘lkashunoslik muzeylarining ijtimoiy-madaniy hayotdagi o‘rni, ularning shakllanish jarayoni va tarixiy-madaniy obyektlarning muzeylashtirish imkoniyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, 1920-1990-yillar davrini qamrab oladi. Bu davr mobaynida Sirdaryo viloyatida muzey sohasi faqatgina madaniyat

⁶⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 08.10.2020 йилдаги “Қатағон қурбонларининг меросини янада чуқур ўрганиш ва улар хотирасини абадийлаштиришга доир қўшимча чора тadbirlar тўғрисида” ги Ф-5598-сон фармойиши. <https://lex.uz/docs/5041012>.

⁷⁰ <https://lex.uz/uz/docs/6056271>.

muassasasi sifatida emas, balki hududning tarixiy xotirasini saqlovchi va milliy o'zlikni mustahkamlovchi ijtimoiy institut sifatida shakllanganini ko'rish mumkin. Shu jihatdan, ushbu bobda o'lkashunoslik muzeylarining tarixiy dinamikasi, ularning madaniy-ma'rifiy faoliyati hamda viloyat aholisining tarixiy tafakkurini shakllantirishdagi o'rni ilmiy asosda tahlil etiladi.

Mazkur davrda Mirzacho'lni o'zlashtirish tarixi muzeyining shakllanishi alohida e'tiborga molik. Ushbu muzey dastlab O'zbekiston jurnalistlar uyushmasi a'zosi G'oyib Nazar O'roqlining shaxsiy kolleksiyasiga asoslangan bo'lib, aynan shu tashabbus asosida Guliston muzeyining poydevori qo'yilgan. Bu jarayon O'zbekistonda muzeylarning davlat tomonidan tashkil etilishi bilan bir qatorda fuqarolik tashabbusi asosidagi muzeylashuv amaliyotining rivojlanishini ham ko'rsatadi. Shaxsiy kolleksiyalar asosida yaratilgan muzeylar o'zining mahalliy tarixiy xotirani asrashdagi bevosita hissasi bilan ajralib turadi. Mirzacho'l muzeyi nafaqat irrigatsiya, qishloq xo'jaligi va melioratsiya tarixini yoritadi, balki Sirdaryo vohasining ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarini ham ilmiy asosda hujjatlashtiradi.

Dastlab G'oyib Nazar O'roqlining shaxsiy tashabbusi va boy to'plami asosida tashkil etilgan muzey fondida 10 mingdan ortiq tarixiy hujjatlar, fotosuratlar va eksponatlar jamlangan bo'lib, ular Mirzacho'l vohasining o'zlashtirilishi, irrigatsiya tizimi, qishloq xo'jaligi taraqqiyoti va mintaqaning ijtimoiy hayotini yoritishda muhim manba sifatida e'tirof etiladi. Ushbu boy kolleksiya nafaqat hudud tarixini aks ettiradi, balki XX asr o'rtalaridagi madaniy jarayonlarning hujjatli manbalari sifatida ilmiy qimmatga ega.

1986-yil oxiriga qadar muzey shaxsiy muzey sifatida faoliyat yuritgan bo'lib, bu davrda u asosan mahalliy tarixni targ'ib etish, eksponatlar yig'ish va jamoatchilikni tarixiy meros bilan tanishtirish vazifasini bajargan. O'zbekiston Madaniyat vazirligining 1986-yil 29-dekabrda №18/8-sonli qarori bilan ushbu muzeyning huquqiy maqomi rasmiylashtirilib, "Guliston tarixiy o'lkashunoslik muzeyi" deb qayta nomlangan. Bu qaror muzeyning davlat muassasasi maqomini olishi va uning ilmiy faoliyatini institutsional darajada yo'lga qo'yilishi uchun asos bo'ldi. Oradan to'rt yil o'tib, 1990-yil 13-dekabrda xalq deputatlari Sirdaryo viloyati kengashining №30/263-sonli qarori bilan Guliston shahrida "Mirzacho'lni o'zlashtirish tarixi muzeyi"ni tashkil etish to'g'risida rasmiy qaror qabul qilindi. Bu qaror Mirzacho'l vohasining tarixiy ahamiyatini e'tirof etish bilan birga, hududiy o'zlashtirish jarayonlarini muzey ekspozitsiyasi orqali tizimli yoritish zaruratini ilgari surdi. Shu bilan muzey Sirdaryo viloyatining tarixiy-madaniy merosini ilmiy asosda saqlovchi va tadqiq etuvchi markaz sifatida faoliyat yurita boshladi. Viloyatlar birlashuvi davrida (Sirdaryo va Jizzax viloyatlari qisqa muddatli birlashuvi chog'ida) muzey Jizzax o'lkashunoslik muzeyining tarix bo'limi sifatida faoliyat yuritgan. Bu davr muzey faoliyatining muayyan ma'muriy o'zgarishlar bosqichi bo'lib, fond materiallarining bir qismini saqlash, hujjatlashtirish va ekspozitsiyalarni qayta shakllantirish ishlari amalga oshirilgan. Biroq bu holat muzeyning mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida rivojlanishiga vaqtincha to'siq bo'lgan.

Muzey keyinchalik Jizzax muzeyidan ajratilib, 1991-yilda Mirzacho'lni yalpi o'zlashtirishning 35 yilligi munosabati bilan qayta ochildi. Bu qayta tashkil etish

jarayoni muzey ekspozitsiyasini yangilash, fond materiallarini ilmiy jihatdan qayta tizimlashtirish va hudud tarixini kompleks yoritish imkonini berdi. Shu davrdan boshlab muzey o'z faoliyatini faqat mahalliy darajada emas, balki viloyat va respublika miqyosida ilmiy-tadqiqot va ma'rifiy markaz sifatida olib bora boshladi.

Muzey binosi 1911-yilda Chayev tomonidan qurilib, 1912-yilda Mehnat birjasi sifatida faoliyat yuritgan binoda o'z faoliyatini boshlagan. 1996-yilda muzeyga tashrifchilar jami 1681 kishini bo'lib, 4399 kishi o'quvchi yoshlar, 1498 tasi boshqa soha vakillari, va 150 nafari bog'cha bolalari bo'lgan. 19 ta tashkiliy maruzalar o'tkazilgan.

2004-yil 5-fevraldagi №45 sonli qarorining bekor qilinishi bilan "Mirzacho'lni o'zlashtirish tarixi" muzeyi 1907-yilda qurilgan 450 kv.m. hajmga ega bo'lgan "Knyaz Alekseyev" nomidagi madaniy meros obyekti sifatida ro'yxatga olingan uyida faoliyatini yuritgan. Mazkur bino "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustdagi №269 – P sonli qonuniga asosan tarixiy bino sifatida ro'yxatga olingan.

2006-yilda muzeyda 516 ta eksponatlar mavjud bo'lib, ulardan asosiy fondga olinganlar soni 134 tani tashkil qilgan. Qolgan 382 ta eksponat yordamchi fondga bo'lgan. Etnogrof-tarixchi olim G'oyibnazar Abdullayev o'zining shaxsiy kolleksiyasidagi 4000 dona eksponatlarni muzeyga hadya etgan. 2006-yil davomida yangi eksponatlar kiritilmagan. Muzey xodimlari o'z kuchlari bilan 2 ta eksponatni ta'mirdan chiqardi. Bular bo'ri maketi va oqqush maketi hisoblanadi.

2009-yilga kelib muzey fondi 782 ta eksponatdan iborat bo'lgan. Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati muzeyida 2017-yili yopilib ketgan Suratlar galereyasining noyob rangtasvir asarlari fondan o'rin olgan.

Suratlar galereyasi 1981-yil 392-P farmoni bilan "Yashil teatr binosida" Sirdaryo viloyati rasmlar galereyasi negizida, Sirdaryo viloyati san'at galereyasi tashkil etilgan. Yillar davomida galereyaga turli tashkilot va muzeylardan rangtasvir asarlari sovg'a qilib berilgan va sotib olingan. Galereya fondi shu tariqa boyib, borgan. 1996-yil galereyaga tashrifchilar soni 70 nafar bo'lib, galereya fondiga hech qanday suratlar sotib olinmagan. 5 ta ko'rgazma tashkil etilgan bo'lib, Respublika badiiy ko'rgazmalar direksiyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan. Suratlar galereyasi uchun asosiy fondni I.D.Rubin, X.M.Pashkovskoy, K.Nabiev, V.Kochetkova kabi bir qator rassomlarning ijod namunasi joy olgan bo'lib, dastlabki fond asosini 58 ta kartina tashkil etgan.

2003-yilda akademik R.Choriyev galereyaga 24 ta asar sovg'a qilgan. 2005-yilda madaniyat va sport ishlari boshqarmasi rassom A.Boybekov kolleksiyasidan 4 ta asar sotib olingan. 2005-yilga kelib galereyada rangtasvir asarlari soni 84 taga yetgan bo'lib, fondga jami 31 ta kartochka yuritilgan. Anorqul Boybekovdan muzey uchun 4 ta kartina sotib olgan, hamda shu yili ko'rgazmalar soni 20 ta ulardan ekskursiyalar soni 500 ta, ko'rik-tanlovlar soni 4 ta, qatnovlar soni 2000 ta bo'lgan. 2006-yil may oyida galereyaga Madaniyat vazirligi tomonidan 1 ta asar sovg'a tariqasida berilgan. 2006-yilda Abduvali Nurtojiyev galereyaga 7 ta asar sovg'a qilgan. Ilmiy fond ishlari galereyaning kirim kitobiga (KK) hamda ilmiy inventor daftariga kiritilgan 116 ta rangtasvir asarlari va jihozlar mavjud, ammo jihozlar

haqida to'liq ma'lumotlar keltirib o'tilmaganligi takidlangan.

Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati muzeyida 2018-yili yopilib ketgan Suratlar galereyasining noyob rangtasvir asarlari fondan o'rin olgan⁷¹.

Suratlar galereyasi uchun asosiy fondni I.Rubin, Kuznetsov, X.Pashkovskoy, K.Nabiyev, V.Kochetkova kabi bir qator rassomlarning ijod namunasi joy olgan bo'lib, dastlabki fond asosini 58 ta kartina tashkil etgan. Bir yil davomida galereya 30 dan ortiq ko'rgazmalarni tashkil etgan bo'lib, ko'rgazmalar turli mavzularda bo'lgan. "Urush qahramonlari", "Butun dunyo ayollari", "Xalqaro muzeylar kuni", "Benkov ijodi", "E.Moisenkoning 70 yillik yubileyi" kabi mavsumiy ko'rgazmalar tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 10 yilligi munosabati bilan 2001-yilda "Istiqlol jilolari"⁷² mavzuida taniqli rangtasvir ustalari, iste'dodli yoshlarning mustaqillik yillarida yaratgan tasviriy va amaliy san'at asarlaridan iborat ko'chma ko'rgazmalar tashkil etiladi. Ko'rgazmada 20 dan ortiq dastgohli rangtasvir asarlari joy egallagan bo'lib, ikki mingdan ortiq tashrifchilar uchun 50 dan ortiq ekskursiyalar tashkil etilgan. "Rassom bolalar" nomli may va iyun oylarida ko'rgazma tashkil etilgan, unda 35 dan ortiq rangtasvir asarlari ekspozitsiyadan joy olgan. 100 mingdan ortiq tashrifchilar uchun ekskursiyalar tashkil etilgan. 1986-yilning eng katta ko'rgazmalaridan biri bu xalqaro Toshkent rassomlari ijodi to'g'rida bo'lib, oktabr oyidan to 15-dekabrga qadar tashkil etilgan. Ekspozitsiyaga 35 dan ortiq akvarel ishlari, 80 dan ortiq rangtasvir asarlari qo'yilgan. Ko'rgazmaga tashrifchilar soni 13235 tani tashkil etgan bo'lib, shundan yosh bolalar soni 6505 tani tashkil etgan. Ular uchun 350 dan ortiq ekskursiya matni tashkil etilgan⁷³.

Suratlar galereyasining faoliyati to'g'risida bir necha marotaba "Sirdaryo haqiqati" gazetasida yoritib borilgan. Har yili muntazam ravishda turli mavzularga doir ko'rgazmalar tashkil qilingan, bular xalqaro muzeylar kuni munosabati bilan "Mehnatkashlar sharafiga", "Tasviriy san'at", "Bizning o'lka" kabi nomlar bilan ko'rgazmalar o'tkazilgan. Har bir ko'rgazma uchun maxsus ekskursiya matni yoshga qarab tashkil etilgan. "Tinchlik uchun" nomli ko'rgazmada 35 dan ortiq rangtasvir asarlari joy olgan bo'lib, ikki mingdan ortiq tashrifchilar uchun yuzdan ortiq ekskursiyalar tashkil etilgani ta'kidlab o'tilgan. 1987-yilda galereya rahbari T.Asilbekov bo'lgan⁷⁴.

Bundan tashqari, Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati muzeyi fondida hozirda R. Choriyev mo'yqalamiga mansub peyzaj janridagi "Gazli manzarasi" (1976), "Bandixon bo'z yerlari" (1983), mustaqillik yillarida yaratilgan "Ona portreti" (1998), "Feruza portreti" (2000) kabi ishlar borligini ham qayd etish lozim.

Shuningdek, I. Rubinga tegishli asarlar orasida san'atkor ayollarning jozibali portretlari ham alohida o'rin egallaydi. 1970-1980-yillar rangtasviri uchun xos bo'lgan ijodkor-ziyolilarning obrazlarini yaratish tendensiyasi bilan bog'liq bu

⁷¹ Ўзбекистон Миллий архиви. 7-жамғарма, 1-рўйхат, 438-йиғма жилд, Сирдарё вилояти суръатлар галереясида 1996 йил олиб борилган ишлар ҳисоботи. 18 вароқ.

⁷² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 19-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 10-yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi 40-son qarori. <https://lex.uz/uz>.

⁷³ Ўзбекистон Миллий архиви. 2296-жамғарма, 17-рўйхат, 39-йиғма жилд, Сирдарё вилояти суръатлар галереясида 1986 йил олиб борилган ишлар ҳисоботи. 18 вароқ.

⁷⁴ Ўзбекистон Миллий архиви. 2296-жамғарма, 17-рўйхат, 437-йиғма жилд, Сирдарё вилояти суръатлар галереясида 1987 йил олиб борилган ишлар ҳисоботи.

izlanishlar tomoshabinlarga rassom ijodining yana bir muhim qirrasini namoyish etadi. “Xalq artisti Malika Axmedova portreti” (1984), “Xalq artisti Dildora Abduraxmonova portreti” (1985), “Xalq artisti Bernara Qoriyeva portreti” (1985-1987) kabi asarlarda I. Rubin o‘zi bilan zamondosh bo‘lgan san’atkor ayollarning ijod jarayonidagi yorqin siymolarini aks ettirishga erishgan. Misol uchun, “Xalq artisti Malika Axmedova portreti”da sharqona libosdagi go‘zal ayol devoriy ganchlar fonida, yuzini ro‘moli bilan to‘smoqchi bo‘lgan holatda tasvirlangani e‘tiborni tortadi. Shu bilan birga, rassom san’atkor ayollar siymosini gavalantirish jarayonida ularning ijodiy faoliyati, psixologiyasini ham hisobga olishga intilganini “Xalq artisti Dildora Abduraxmonova portreti”, “Xalq artisti Bernara Qoriyeva portreti” yaqqol ko‘rinish mumkin. Ularning birinchisi jiddiy qiyofadagi ayol dirijer hisoblansa, ikkinchisi balet sahnasida rol ijro etayotgan jozibali raqqosa sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, muzey fondida I. Rubinga tegishli rangtasvir portretlari uchun muhim asos bo‘lib xizmat qilgan ko‘plab etyudlar, grafik ishlar ham mavjud. Ularni realistik portret janrida ijod qilgan usta rassomning original izlanishlari sifatida baholash mumkin.

Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati muzeyi faoliyatida eksponatlarni saqlash va targ‘ib qilish yo‘lida bir qator ishlarni amalga oshirgan bo‘lsa-da, bir qator muammolar ham mavjud. Avvalo, muzey moddiy-texnik bazasi, ilmiy-tadqiqot faoliyati va ekspozitsion ishlari zamonaviy talablarga to‘liq javob bermaydi. Muzeyda eksponatlarning saqlanish sharoiti, yorug‘lik, namlik va harorat rejimining nazorat darajasi yetarli emasligi, restavratsiya ishlari ko‘pincha xodimlarning o‘z tashabbusiga tayanib amalga oshirilganligi kuzatildi. 2017-yilda yopilgan Suratlar galereyasi fondining muzey fondiga qo‘shilishi ijobiy jarayon bo‘lsa-da, bu jarayon tizimli rejalashtirilmagan, natijada ayrim asarlarning ilmiy tavsifi va kataloglashtirilishi ro‘yxatga olinmagan.

XULOSA

Tadqiqot natijalaridan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ta‘mirlash tartiblarini belgilaydigan meyoriy hujjatlar takomillashtirilib, muzeylar faoliyatini reyting va KPilar orqali baholash amaliyoti bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Buning natijasida muzeylar Oliy, birinchi, ikkinchi va uchunchi toifalarga bo‘linib, raqobat muhiti yaratilmoqda.

2. 2030 yilga qadar muzey fondlari va ekspozitsiyalarini raqamli kataloglash, yuqori sifatli tasvir va metama‘lumot bazasiga o‘tkazish ishlari amalga oshirilmoqda.

3. O‘zbekistonda madaniy meros obyektlarini o‘rganish XIX asr oxiri XX asr boshlaridan boshlanib, ilmiy yondashuvlarning shakllanishi va rivojlanishi uzoq tarixiy jarayon mahsuli hisoblanadi. Bu jarayonning ilmiy-metodologik asoslari “Известия Средазкомстариса”, “Труды Института истории и археологии” kabi nufuzli nashrlar hamda V. Bartold, A. Semenov, G. Chabrov, M. Masson, G. Pugachenkova, Y. G‘ulomov, N. Sodiqova, M. Bekmurodov, Sh. O‘ljayeva, E. Smirnova, V. Galovkin singari yetuk tadqiqotchilarning fundamental izlanishlari

orqali shakllangan. Mazkur ilmiy meros madaniy yodgorliklarni o'rganish, saqlash va muzeylashtirishning nazariy-konseptual asoslarini boyitib, sohaning ilmiy-amaliy rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi.

4. So'nggi yillarda madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, ulardan foydalanish, ilmiy jihatdan o'rganish tizimi yangi bosqichga ko'tarilgan bo'lsada, ayrim restavratsiya ishlarining ilmiy-me'moriy talablarga zid olib borilishi yoki ba'zi obyektlarning (jumladan, Eski Xovos tepaligi) muzeylashtirish rejasiga kiritilmagani sohada hali ham ayrim muammolar borligini ko'rsatadi;

5. XIX asrning oxirlarida Turkistonda, asosan Sirdaryo viloyatida, arxitektura va qurilishda sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Bu davrda yirik qurilishlar, jumladan, temiryo'l inshootlari, ma'muriy va turar joy binolari qurildi va ushbu obyektlar nafaqat rus me'morligi uslublarini, balki mahalliy uy-joy qurilish an'analari ta'siri aniqlandi;

6. 2014-yillarda Eski Xovos arxeologik obyektidan topilgan ashyolar, 2017-yilda Guliston shahridagi Knyaz Alekseyev uy binosi, shuningdek 2024-yildan boshlab Knyaz Alekseyevning mehmonxonasi hamda Romanovlarning cherkov binosi muzeylashtirilib, Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining balansiga o'tkazildi hamda mazkur madaniy meros obyektlarining to'g'ri saqlanish jarayonlari yo'lga qo'yilgan;

7. Viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeylari hududiy madaniy-ma'rifiy makonda tarixiy-madaniy merosni saqlash, targ'ibot qilish vazifasi bilan birga ta'limni uyg'unlashtiradi. Shu tariqa, o'lka tarixiga urg'u beruvchi muzeylar faqat "ashyolar zahiraxonasi" emas, balki hududning ochiq laboratoriyasiga aylanib, madaniyatni ta'limga va inson kapitali rivojiga konvertatsiya qiladi.

8. Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining asosiy fondi to'liq o'rganilib, fondagi rangtasvir asarlarning deyarli barchasi XX-asrning ikkinchi yarmiga taalluqli R.Choriyev, A.Yusupov, Z.Inog'omov, F.Axmadaliyev, I.Enin, I.Rubin, D.Usmonov, M.Sodiqov, B.Maxkamov, V.Xapov, A.Nurxojiyev, D.Raimqulov, M.Rashkovskaya, R.Annenkovlar ijodiga mansub hisoblanadi;

9. Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati muzeyi amaliy san'at kolleksiyasi Rumuniya, Bolgariya, Turkmaniston, Qirg'iziston davlatlari amaliy san'at asarlari namunalari, shuningdek, Qashqadaryo, Surxondaryo-Boysun, Buxoro, Shahrisabz, Jizzax hunarmandchilik buyumlari asosida viloyat aholisi demografiyasi bilan bog'liq ijtimoiy-madaniy jarayonlarning ta'siri natijasida shakllangan;

10. Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi faoliyati ilmiy jihatdan o'rganilib, tahlillar natijasida ekspozitsiya tizimida etiketajlarning zamonaviy muzeyshunoslik talablari darajasida yo'lga qo'yilmaganligi, fond zahiraxonalarining yetarli emasligi, shuningdek, amaliy san'at va rangtasvir asarlarining saqlanish sharoiti belgilangan muzey standartlariga to'liq javob bermasligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalari quyidagi **taklif va tavsiyalarni** ishlab chiqish imkonini berdi:

1. Sirdaryo viloyatidagi arxeologik va madaniy meros obyektlari, tarixiy merosni o'rganish va targ'ib qilishda ta'limdan foydalangan holda maktablar va institutlar uchun maxsus ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, ekskursiyalar va ilmiy

anjumanlar tashkil etish;

2. Sirdaryo viloyatidagi muzeylar faoliyatini kengaytirish, yangi eksponatlar va yodgorliklar bilan boyitish, muzeylarni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, masalan, interaktiv ko'rgazmalar tashkil qilish zarur;

3. Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi fondidagi barcha eksponatlarni raqamlashtirish, foto va video materiallar bilan hujjatlashtirish, shuningdek, onlayn platformalar orqali ommaga taqdim etish. Shu bilan birga, muzey fondlarining raqamli arxivini yaratish;

4. Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi fondiga kirgan eksponatlar haqida ta'lim dasturlari va ilmiy treninglar tashkil etish. Bu dasturlarni maktablar, universitetlar, ilmiy muassasalar va mahalliy aholi uchun ishlab chiqish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.08/09.07.2020.San.118.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ГОСУДАРСТВЕННОМ МУЗЕЕ
ИСКУССТВ УЗБЕКИСТАНА**

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ ХУДОЖЕСТВ И ДИЗАЙНА
ИМЕНИ КАМОЛИДИНА БЕХЗОДА**

ТУРГУНОВА ФАЗИЛАТ НОРМУРОДОВНА

**ЗАДАЧИ СОХРАНЕНИЯ И МУЗЕЕФИКАЦИИ ОБЪЕКТОВ
КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ**

**17.00.06 – Музееведение. Консервация, реставрация и хранение
историко-культурных объектов**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ ПО
ИСКУССТВОВЕДЕНИЮ (PhD)**

ТАШКЕНТ – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2022.2.PhD/San82.

Диссертация выполнена в Национальном институте художеств и дизайна имени Камолиддина Бехзода.

Автореферат диссертации размещён на двух языках (узбекском и русском) и размещён на веб-странице Научного совета (<http://www.stateartmuseum.uz>) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Нишанова Камола Солижоновна

доктор философии (PhD) по и искусствоведению,
доцент

Официальные оппоненты:

Абдуллаев Машарип Сайдамович

доктор наук по искусствоведению (DSc), старший
научный сотрудник

Темирходжаев Джахонгир Пулатович

доцент, кандидат технических наук

Ведущая организация:

Государственный институт искусств и культуры Узбекистана

Защита диссертации состоится «__» _____ 2025 года в ____ часов на заседании Научного совета PhD.08/09.07.2020.San.118.01 при Государственном музее искусств Узбекистана. (Адрес: 100060, г. Ташкент, улица Амира Темура, площадь Памяти жертв репрессий. Зал заседаний Музея памяти жертв репрессий при Кабинете Министров. Тел.: (99855) 515-37-15; факс: (99855) 515-37-15; e-mail: tmi2007@mail.ru.)

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Государственного музея искусств Узбекистана (зарегистрирована за № ____). (Адрес: 100060, г. Ташкент, улица Амира Темура, дом 16.). Тел.: (99871) 236-74-36; факс: (99871) 236-77-40.

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2025 года.
(протокол реестра № __ от «__» _____ 2025 года).

Б.В.Хасанов

Председатель научного совета по
присуждению учёных степеней
д.и.н., профессор

М.Б.Алижонов

Научный секретарь научного совета
д.ф.и.н. (PhD)

А.А.Мадраимов

Председатель научного семинара
при научном совете по
присуждению учёных степеней,
д.и.н., профессор

Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В XXI веке процессы глобализации, урбанизации, а также участвовавшие природные катастрофы, вооружённые конфликты и акты вандализма создают серьёзную угрозу объектам культурного наследия. В развивающихся странах недостаточное финансирование реставрационных работ, ограниченное участие меценатов и частного сектора, нехватка современных реставрационных технологий и оборудования, а также дефицит квалифицированных кадров обуславливают наличие многочисленных проблем в данной сфере. Для их решения всё более актуальным становится внедрение цифровых технологий в процессы восстановления и документирования объектов культурного наследия, совершенствование механизмов управления и интеграция реставрационных и исследовательских практик.

В настоящее время деятельность по сохранению и реставрации культурного наследия в мировом масштабе тесно связана с инициативами ЮНЕСКО. Благодаря усилиям этой организации тысячи памятников были спасены от разрушения, а такие цифровые программы, как «Dive into Heritage» и «Unite4Heritage», позволяют документировать исторические объекты в формате 3D и представлять их широкой общественности через виртуальные музеи. Эти проекты направлены на повышение глобальной ответственности человечества за сохранение культурных ценностей.

В последние годы в нашей стране проводится масштабная работа по реформированию системы охраны и музеефикации объектов культурного наследия. Проведение недели культурного наследия под девизом «Культурное наследие Узбекистана — основа Нового Ренессанса», а также реализация совместных проектов с Международным центром по изучению сохранения и реставрации культурных ценностей (ICCROM) и ЮНЕСКО свидетельствуют о том, что данные процессы развиваются в соответствии с международными стандартами. «У нас имеется всего 8,2 тысячи объектов культурного наследия, из которых 209 включены в Список всемирного наследия ЮНЕСКО»¹. Этот факт подтверждает особое значение Узбекистана как одного из мировых центров культурных ценностей и подчёркивает научную и практическую значимость исследования процессов сохранения и музеефикации культурного наследия.

Данная диссертация в определенной степени служит реализации задач, определенных в Законе Республики Узбекистан «О музеях» № ЗРУ-177 от 12 сентября 2008 года, Указе Президента Республики Узбекистан № УП-5024 от 15 августа 2017 года «О мерах по дальнейшей реализации Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах», Указе № УП-6000 от 26 мая 2020 года «О мерах по дальнейшему повышению роли и значения сферы культуры и искусства в жизни общества»,

¹ Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. Тошкент. 2024. “Ўзбекистон” нашриёти., 2024 -. Б.345.

постановлениях № ПП-3920 от 26 августа 2018 года «О мерах по инновационному развитию сферы культуры и искусства в Республике Узбекистан», № ПП-261 от 27 мая 2022 года «О мерах по развитию сферы услуг в музеях», постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан № 975 от 11 декабря 2017 года «Об утверждении Программы мер по совершенствованию деятельности и комплексному укреплению материально-технической базы государственных музеев на 2017 — 2027 годы», № 1019 от 19 декабря 2019 года «Об утверждении Программы совершенствования деятельности музеев в Республике Узбекистан на 2020-2021 годы», а также в других принятых нормативно-правовых документах, относящихся к данной деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социально-экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В процессе изучения археологических и культурных памятников, а также истории становления и деятельности музеев Сырдарьинской области, в соответствии с целью и задачами диссертации, источники и литература были систематизированы и условно разделены на три группы.

К первой группе относятся работы известных исследователей — Б.П. Денике, Б.В. Веймарн², В.А. Воронина³, В.А. Нильсен и В.Н. Манакова⁴, Г.А. Пугаченкова⁵, Л.И. Ремпель⁶, А.К. Писарчик⁷, — посвящённые вопросам архитектуры, искусства и культуры Средней Азии.

Ко второй группе относятся исследования, непосредственно связанные с археологическими экспедициями, проводимыми на территории Сырдарьи:

